

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**BO'LAJAK PEDAGOGLARNING FASILITATSION KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH USULLARI.**

**МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ФАСИЛИТАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ.**

**METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF FACILITATION
COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS.**

Eshmatova Go'zaloy Ziyoyidin qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

Эшматова Гузалой Зиёйдин кизи

Преподаватель кафедры педагогики университета информационных технологий и менеджмента

Eshmatova Guzaloy Ziyoyidin qizi

Teacher of the Department of Pedagogy of the University of Information Technology and management

gozaloyeshmatova@mail.com +998935851292

Annotatsiya: *Bo'lajak pedagoglarda fasilitatsion kompetensiya ko'nikmalarni shakllantirish — ularni kelajakda zamonaviy, demokratik va samarali ta'lim jarayonini tashkil etishga tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu kompetentlikning mazmuni, uning ahamiyati va uni rivojlantirishning asosiy usullari yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *fasilitatsiya, texnologiya, ta'lim, tarbiya, pedagog, bola, xulq-atvor, yo'nalish, rivojlantirish*

Аннотация: *фасилитационная компетентность у будущих педагогов является важным условием формирования умений и навыков — подготовки их к организации современного, демократичного и эффективного образовательного процесса в будущем. В данной статье будет освещено содержание данной компетенции, ее значение и основные пути ее развития.*

Ключевые слова: *фасилитация, технологии, обучение, воспитание, воспитатель, ребенок, поведение, ориентация, развитие.*

Annotation: *in future educators, the formation of facilitation competence skills is an important condition for preparing them for the organization of a modern, democratic and effective educational process in the future. This article will highlight the content of this competence, its importance and the main methods of its development.*

Keywords: *facilitation, technology, education, upbringing, educator, child, behavior, orientation, development.*

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

KIRISH. XXI asrda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — talabaning shaxs sifatida kamol topishi, mustaqil fikrlashi va harakat qilishi uchun zarur shart-sharoit yaratishdan iborat. Buning uchun zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki talabalarning faol ishtirokini ta'minlay oladigan fasilitator bo'lishi lozim. Bu esa pedagoglardan yangicha yondashuv, yangi ko'nikmalar va professional kompetentligini doimiy ravishda rivojlantirishni talab qiladi. Fasilitatsion kompetentlik — bu pedagogning talabalarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undash, mustaqil fikrlashga yo'naltirish, muammolarni birgalikda hal qilishga rahbarlik qilish qobiliyatidir. Bunday kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchi talaba bilan birgalikda ta'lim subyektiga aylanadi. U dars jarayonida o'z fikrini tiqishtirmaydi, balki talabaga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, maslahat beradi, unga ishonch bildiradi. Fasilitatsiya (lotincha "facilitare" – yengillashtirmoq) — o'quv jarayonida ishtirokchilarga erkin fikr bildirish, o'zaro muloqot qilish va hamkorlikda yechim topish uchun imkoniyat yaratish jarayoni. Bu uslubda o'qituvchi darsni o'zi boshqarish o'rniga, talabalarning bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyojini uyg'otadi, muammolar ustida mustaqil ishlashga undaydi. Fasilitatsion kompetentlik quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

- ✓ Kommunikativ kompetentlik – talabalar bilan samarali muloqot qura olish, faol tinglash, to'g'ri savol bera olish.
- ✓ Empatiya – o'quvchilarning ichki holatini tushunish, ularga nisbatan samimiy va mehribon bo'lish.
- ✓ Tashkiliy kompetentlik – guruh ishlarini samarali tashkil etish, vaqt va resurslarni boshqarish.
- ✓ Refleksiv kompetentlik – o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan saboq chiqarish, yangilikka ochiqlik.
- ✓ Motivatsion kompetentlik – talabalarda ta'lim olishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va mustahkamlash.

Fasilitatsion kompetentlikga ega bo'lgan pedagog o'z darsini talabalarning faolligi va ijodiy yondashuviga asoslab quradi. U darsni biryozlama ma'ruza shaklida o'tkazmaydi, balki talabalar bilan birga muammo yechadi, fikr almashadi, o'zaro hurmat asosida ishlaydi. Oliy ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlarni tayyorlashda quyidagi metodlar bo'lajak o'qituvchilarda fasilitatsion ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

➤ **Trening mashg'ulotlari**

Maxsus treninglar orqali talabalar muloqot, guruhda ishlash, qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni amaliy mashg'ulotlarda o'rganadilar. Treninglar interaktiv o'yinlar, rolli mashqlar, "aql charxi" uslublari orqali tashkil etiladi. Bu orqali talabalar real dars vaziyatlariga yaqin muhitda tajriba orttiradilar.

➤ **Mikro-o'qitish (microteaching)**

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Bu metodda talaba o'zi tayyorlagan kichik darsni olib boradi. Boshqa talabalar va o'qituvchi kuzatib, tahlil qiladi. Bu usul o'z ustida ishlash, mustaqil fikr yuritish, dars jarayonini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

➤ Loyiha asosida o'qitish (Project-based learning)

Talabalar kichik guruhlarda loyihalar ustida ishlaydi. Masalan, "Zamonaviy maktab qurish loyihasi", "Atrof-muhitni muhofaza qilish darslari" kabi mavzular. Bu orqali ular muammoni tahlil qiladi, rejalar tuzadi, resurslarni boshqaradi va taqdimot qiladi.

➤ Guruhli o'quv ishlari

Darslarda talabalar guruhlariga bo'linib ishlaydi. Har bir guruh bir vazifani bajaradi, keyin fikr almashadi. Guruh ichida liderlar ajraladi, rollar taqsimlanadi, bu esa kelajakda pedagog bo'lishga tayyorlaydi.

➤ Refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish

Dars yoki amaliy mashg'ulotlardan so'ng talabalar o'z faoliyatini tahlil qiladi, nimasi muvaffaqiyatli bo'ldi, nimasi yo'q, degan savollarga javob izlaydi. Bu ularda mas'uliyat hissi va tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

➤ Pedagogik kauching (ustoz-shogird)

Tajribali ustozlar yangi talabalarni kuzatib boradi, maslahat beradi. Shogird esa real darslarda ishtirok etib, fasilitatorlik xatti-harakatlarini amalda o'rganadi.

➤ Texnologiyalardan foydalanish

Onlayn platformalar, vebinarlar, forumlar orqali muloqot qilish, savol-javoblar tashkil etish orqali ham fasilitatsion ko'nikmalar shakllanadi. Masalan, Google Meet orqali guruh muhokamasi o'tkazish, Miro platformasida loyiha rejaları tuzish, Padlet orqali fikr almashish.

Fasilitatsion kompetentlik — bu faqatgina metodik ko'nikmalar to'plami emas, balki o'qituvchining shaxsiy sifatleri bilan chambarchas bog'liqdir. Fasilitator bo'lgan pedagog o'zining ruhiy-axloqiy, kommunikativ va kasbiy madaniyati bilan boshqalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, quyidagi shaxsiy fazilatlar har bir bo'lajak pedagogda shakllanishi zarur:

1. Tinglay olish va hurmat ko'rsatish

Fasilitator o'qituvchi talabalar fikriga diqqatli bo'ladi. Har bir talabani e'tiborda tutadi, uning savollariga e'tibor bilan javob beradi. Bu talabada hurmat va ishonch hissini uyg'otadi.

2. Sabrlilik va ijobiy munosabat

Fasilitatsiya jarayonida turli fikrlar, muammolar, qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi. O'qituvchi sabr bilan har bir holatni tahlil qilishi, vaziyatga nisbatan ijobiy yondashuvi bilan muhitni barqaror saqlab qolishi lozim.

3. Liderlik va tashabbuskorlik

Fasilitator o'qituvchi vazifani topshirish bilan kifoyalanmaydi. U talabalarni ilhomlantiradi, rag'batlantiradi, tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

4. O'z ustida ishlashga tayyorlik

Shaxs sifatida o'z ustida ishlaydigan, yangilikka ochiq, o'rganishga chanqoq bo'lgan o'qituvchi o'z tajribasini tahlil qiladi, doimiy ravishda o'z kasbiy darajasini oshirib boradi.

5. Muomala madaniyati

Fasilitator pedagog muloqotni zo'ravonliksiz, bahslarsiz, hurmatga asoslangan tarzda olib boradi. Uning nutqi aniq, tushunarli va madaniyatli bo'lishi lozim.

Bu sifatlar pedagogik institutlarda faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, treninglar orqali shakllantirilishi kerak. Pedagogik ta'limda bo'lajak o'qituvchilarda fasilitatsion kompetentligini shakllantirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni taklif etamiz:

Oliy ta'lim tashkilotlari uchun:

✓ "Fasilitatsiya asoslari" yoki "Interaktiv dars metodlari" nomli maxsus kurslarni joriy etish;

✓ Har semestrda fasilitatsion treninglar tashkil qilish;

✓ Mikro-o'qitish, loyiha asosida ta'lim, tajriba almashuv dasturlarini yo'lga qo'yish;

✓ Fasilitator bo'lish bo'yicha portfoliolar tuzdirish.

O'qituvchilar va amaliyotchi ustozlar uchun:

✓ Pedagogik kauching tizimi orqali yosh pedagoglarga metodik va psixologik yordam ko'rsatish;

✓ Fasilitatsion faoliyatni baholash bo'yicha mezonlar ishlab chiqish;

✓ "Fasilitator haftaligi", "Ochiq darslar marafoni" kabi tajriba almashuv platformalari tashkil etish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bo'lajak pedagoglar zamonaviy ta'lim muhitiga mos, moslashuvchan, interaktiv, mustaqil fikrlovchi talabalarni tayyorlay oladigan shaxs bo'lishi lozim. Bunday maqsadga erishishda fasilitatsion kompetentlik muhim o'rin tutadi. Fasilitatsion kompetentlik;

✓ O'qituvchini talaba bilan teng hamkorlik qiluvchi shaxsga aylantiradi;

✓ Ta'lim jarayonini faollik, hamkorlik, ijodkorlik ruhida olib borishni ta'minlaydi;

✓ Talabalarning shaxsiy yondashuvini rag'batlantiradi.

Shu bois, pedagogik ta'limda bu ko'nikmalarni shakllantirish — zamonaviy o'qituvchini tayyorlashning ajralmas qismiga aylanishi kerak. Maxsus metodik yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlar, mentorlik va texnologik imkoniyatlar orqali bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat bilimdon, balki rahbar, yo'l boshchi va ishonchli sherik sifatida shakllantirish mumkin.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova, M. Pedagogik faoliyatda fasilitatsiya tamoyillari. Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti. 2021.
2. Hasanov, B. Zamonaviy ta'lim metodlari va fasilitatsion yondashuvlar. Andijon: ADU nashriyoti. 2020.
3. Raxmatova, Z. Bo'lajak o'qituvchilarda fasilitatsion kompetensiyani shakllantirishning samarali usullari. // Ta'lim innovatsiyalari jurnali, 4(1), 2022. 45-51 b.
4. Nurmatov, S. Ta'limda interfaol metodlar va ularning samaradorligi. // Oliy ta'lim muammolari. 2023. 23–28 b.

